



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SAYLOV JARAYONLARINING HUQUQIY ASOSLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitish
metodikasi huquq ta'limi
magistranti*

Tojiboyeva Zohida Yuldashboy qizi

Annotatsiya mazkur maqolamda O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonlarining huquqiy maqomi qaysi qoninlarda mustahkamlab qo'yilganligi hamda O'zbekiston Respublikasidagi barcha fuqorolar saylash va saylanish huquqiga ega ekanligi xaqida ma'lumot berib o'taman

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Respublika, Konstitutsiya, saylov, demokratik davlat, fuqoro, jamiyat, davlat, prezident, parlament, xalq, deputat, viloyat, tuman, shahar, mahalla, erkinlik, ixtiyorilik.

Kirish. Saylov — fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etish huquqining muhim faoliyati hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi birinchi moddasiga ko'ra demokratik davlat bo'lib, saylov jarayonlari konstitutsiyaviy me'yorlarga va xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etiladi. Bu maqolada saylov jarayonlarining huquqiy asoslari, normativ-huquqiy bazasi, hamda amaldagi mexanizmlar ko'rib chiqiladi O'zbekistonda saylov jarayonlari quyidagicha asosiy huquqiy manbalarga tayanadi. Bulardan birinchisi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'lib bu qonun davlatimizning asosiy qonuni xisoblanadi. Asosiy qonunida belgilanganidek

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati vositasida amalga oshiriladi.



О‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasi¹

Darxaqiqat yana shuni aytish joizki konstitutsiyada 22-bob Saylov tizimi deb ajratilgan Bunga asosan qat’iy belgilab qo’yilgan²

O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov tegishincha ularning konstitutsiyaviy vakolat muddati tugaydigan yilda — oktabr oyi uchinchi o‘n kunligining birinchi yakshanbasida o‘tkaziladi, bundan ushbu Konstitutsiyada nazarda tutilgan muddatidan ilgari saylov o‘tkazish hollari mustasno. Saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti muddatidan ilgari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini tayinlashga haqli. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a‘zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar saylanganidan so‘ng bir oy ichida ular orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan saylanadilar Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas. Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko‘ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishi mumkin. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasi

² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 128-modda



to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklashga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bir vaqtning o'zida ikkidan ortiq davlat hokimiyati vakillik organining deputati bo'lishi mumkin ema. Saylov o'tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi.

³O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlariga saylovlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining referendumini tashkil etish va o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan faoliyatining asosiy prinsiplari mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilikdan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tuziladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi saylov komissiyalari tizimiga boshchilik qiladi, o'z faoliyatini doimiy asosda amalga oshiradi hamda o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga va qonunlariga amal qiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining a'zolari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarining tavsiyasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan saylanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan komissiya a'zolari orasidan besh yillik muddatga komissiya majlisida saylanadi. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining raisi etib saylanishi mumkin emas. Bunda barcha fuqorolarning saylovlarda to'laqonlik ishtirok etish uchun baecha sharoitlar yaratilganligini ko'rish mumkin .

O'zbekistonda saylov jarayonlaring huquqiy asosi sifatida asosiy qonunimiz konstitutsiya bilan birgalikda Saylov kodeksida ko'rish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi 2019-yil 25-iyun kuni qabul qilingan bo'lib, tarkibi 18-bob 103 moddadan iborat bo'lib, bunda mamlakatda saylov jarayonlarini tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha asosiy huquqiy me'yorlarni belgilab beradi. Saylov kodeksi

³O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi 129-maddasi



saylov huquqining yagona qonunchilik asosini yaratish uchun ishlab chiqilgan hamda ilgari amal qilgan bir qator qonunlarni birlashtiradi.

Saylov kodeksining asosiy jihatlari

1. Amal qilish sohasi:

Prezident saylovi;

Qonunchilik palatasi deputatlari saylovi;

Mahalliy kengash deputatlari saylovi;

Referendumlar.

2. Saylov huquqlari:

Har bir fuqaroga teng va to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish huquqi beradi.

Ovoz berish yashirin tarzda amalga oshiriladi.

3. Saylovlarni tashkil etish

Markaziy saylov komissiyasi (MSK) saylovlarni asosiy organ boshqaruvchisi hisoblanadi. Saylov uchastkalari tashkil etiladi, ularning prinsiblari hududiy prinsiplarga asoslanadi.

4. Nomzodlar ko'rsatish:

Siyosiy partiyalar tomonidan nomzodlar ko'rsatadi.

Fuqarolar tashabbuskor guruhi orqali mustaqil nomzodlar ham ko'rsatilishi mumkin.

5.

Saylov kampaniyasi:

Nomzodlar saylovoldi tashviqotini o'tkazishi mumkin.

Saylovoldi tashviqoti teng sharoitlarda va qonuniy asosda amalga oshiriladi.

6. Ovoz berish va ovozlarni hisoblash:

Ovoz berish kuni fuqarolar ovozlarni saylov uchastkalarida beradi.

Ovozlar ochiq va shaffof hisoblanadi.

7. Saylovlarning natijalarini e'lon qilish:

MSK tomonidan ovoz berish natijalari rasmiy e'lon qilinadi.

8. Saylov qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik:



Saylov jarayonlariga aralashish, firibgarlik yoki boshqa qonunbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan.

Saylov kodeksi saylovlarning erkin, oshkora va demokratik tamoyillar asosida o'tkazilishini ta'minlash uchun ishlab chiqilgan. Mazkur kodeks saylovlarni o'tkazishda xalqaro standartlarga mos bo'lishni nazarda tutadi.

Saylovlar har qanday demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, fuqarolarning o'z davlat boshqaruviga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini beradi. Demokratiya asoslaridan biri bo'lgan saylovlar, fuqarolar tomonidan erkin va adolatli o'tkazilgan taqdirdagina jamiyatda barqarorlik hamda taraqqiyotga zamin yaratadi. Saylovlar orqali fuqaro o'z vakillari sifatida kimlarni ko'rishni xohlasa, ularning orzulari va ehtiyojlariga mos qarorlar qabul qiladigan shaxslarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Saylov jarayonining adolatl bilan birgalikda shaffof o'tkazilishi, aholining davlat boshqaruvida ishtirok etishiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ovoz berish fuqarolar o'z xohish-irodasini ochiq-oydin ifoda etadigan mexanizmdir. Ayniqsa, saylov kodeksining rivojlanib borishi hamda yangi texnologiyalarning joriy qilinishi jarayonning yanada samarali bo'lishiga xizmat qilmoqda. Har bir fuqaroning ovozi davlatning kelajagini belgilashda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun saylovlarda qatnashish – bu nafaqat huquq, balki katta mas'uldir. Fuqarolar jamiyat hayotida faol ishtirok etib, davlat boshqaruviga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vakillarga ovoz berish orqali mamlakat taqdiriga o'z hissasini qo'shadi. Saylov – bu fuqarolar davlat boshqaruvida ishtirok etadigan muhim demokratik institutdir. Saylovlar orqali fuqarolar o'z vakillarini tanlab, o'z davlatining kelajagini belgilashda faol qatnashadi. Ushbu jarayon adolatli va shaffof o'tkazilganda, davlat boshqaruvi tizimida xalqning ishonchi va ishtiroki ortadi.

Saylovlar qadim zamonlardan buyon davlat boshqaruvining asosiy qismi hisoblangan. Qadimgi Yunoniston va Rimda demokratik boshqaruv shakllarining ilk elementlari shakllangan bo'lib, fuqarolar o'z huquq va burchlarini bajarish uchun ovoz berish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Bugungi kunda esa saylovlar dunyo bo'ylab keng qo'llanilib, zamonaviy demokratik jamiyatlarning asosi sifatida qaraladi.



Saylovlar orqali davlatning muhim vazifalari hal qilinadi. Ular jamiyatda qonuniylik va barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning xohish-istaklarini hisobga oladigan siyosiy kursni belgilash imkonini beradi. Shu sababli, saylovda qatnashish har Bir fuqoroning huquqi, balki burchidir.

O'zbekiston siyosiy tizimining rivojlanishida ushbu o'zgarishlar muhim tarixiy qadam bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir).
 2. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi.
 3. Markaziy saylov komissiyasi materiallari.
 4. YEXHT va BMT saylov standartlari bo'yicha hujjatlar.
 - 5.LEX.uz saytidan
-